



Received: August 15, 2025  
Accepted: September 21, 2025  
Available online: September 25, 2025

## Sunnatillo Raxmonov

Falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
Toshkent, O'zbekiston

### MAHMUDXO'JA BEHBUDIY – VATAN OZODLIGI YO'LIDA SHAHID BO'LGAN MA'RIFATPARVAR

#### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ma'rifatparvar adib Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va faoliyati yoritilgan. Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'rifat va adabiyotga bo'lgan qiziqishi oiladagi muhit, undagi ma'rifat va adabiyotga bo'lgan intilishdan bo'lgan. Mahmudxo'ja Behbudiy maqolalarida Turkistonda keng ko'lamli siyosiy, iqtisodiy, ta'lim islohotlarini amalga oshirish g'oyalari ilgari surilgan. Mahmudxo'ja Behbudiy ma'rifatparvarlik harakatlarini davom ettirib yangi maktablar ochish, zamona taraqqiyoti va dunyo rivojlanishi bilan tanishib borish istagida matbuotni rivojlantirish, dramaturgiya va teatr faoliyatini yo'lga qo'yish orqali aholini g'aflat uyqusidan uyg'otishga intilgan. Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston ozodligi yo'lida shahid bo'lgan ma'rifatparvar jadid bo'lgan. Uning o'g'itlari hamon dolzarb, zamon andozalariga mos. Behbudiy qoldirgan boy va rang-barang adabiy, madaniy va ma'rifiy meros yosh avlodga xizmat qilib kelmoqda. Maqolada ijodkorning ana shu xizmatlari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** ma'rifatparvar, adabiyot, islohot, g'oya, zamona taraqqiyoti, matbuot, dramaturgiya, teatr, ozodlik, ma'rifiy meros, yosh avlod.

#### KIRISH

Jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri bo'lgan taniqli dramaturg, publitsist va jamoat arbobi, Mahmudxo'ja Behbudiy 1875-yilda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida muftiy oilasida dunyoga kelgan. Mahmudxo'ja Behbudiy ota tomonidan Xoja Ahmad Yassaviy avlodidan bo'lib, ona tomoni ham ziyolilar bo'lishgan. Mahmudxo'ja Behbudiy 6-7 yoshlarida Samarqandda tog'alari yordamida

## Sunnatillo Rakhmonov

Doctor of Sciences in Philosophy (DSc), Professor  
Uzbekistan State World Languages University  
Tashkent, Uzbekistan  
E-mail: sunnat.rahmonov@inbox.ru  
ORCID iD: 0000-0001-8448-875X

### MAHMUDKHOJA BEHBUDI – AN ENLIGHTENER MARTYRED FOR THE FREEDOM OF THE HOMELAND

#### ABSTRACT

This article highlights the life and work of the enlightener Mahmudkhoja Behbudi. His interest in education and literature was shaped by the intellectual atmosphere in his family, which nurtured his inclination toward enlightenment and literary pursuits. In his articles, Mahmudkhoja Behbudi put forward ideas about implementing large-scale political, economic, and educational reforms in Turkistan. Continuing the movement of enlightenment, he sought to awaken the people from the sleep of ignorance by opening new schools, keeping up with the progress of the age and the development of the world, promoting the press, and establishing dramaturgy and theater activities. Mahmudkhoja Behbudi was an enlightened Jadid who became a martyr for the freedom of Turkistan. His advice remains relevant today, in line with the standards of the modern era. The rich and diverse literary, cultural, and educational heritage left by Behbudi continues to serve the younger generation.

**Key words:** enlightener, literature, reform, idea, progress of the age, press, drama, theatre, freedom, educational heritage, young generation.

xat-savod chiqarib, keyinchalik otasi ko'magida Qur'onni o'rganadi. O'n besh yoshida esa tog'asi qozi Muhammad Siddiq huzurida mirzalik keyinchalik, muftilik lavozimlarida ishlaydi. Samarqand ziyolilaridan bo'lgan Hoji Muin "Zarafshon" gazetasida 1923-yilning 25-martida chop etilgan "Mahmudxo'ja Behbudiy" nomli maqolasida allomaning yoshlik yillari xususida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: "Behbudiy afandi o'qishni tark etib biron kasb-kor qilishg'a majbur bo'ldi va Samarqand uyazining "Chashmayi ob" bo'lusida yangigina qozi bo'lg'on tog'asi Muhammad Siddiqning qoshida mirzolik xidmatig'a kirib ishladi. Bunda qilg'on ikki yilliq xidmati chog'ida ul qozixona ishlari bilan oshno bo'ldi. Masoili fiqhiya, meros taqsimi va boshqa muftilikka tegishlik narsalardan xabardor bo'ldi. Ikki yildan so'ng mirzolikka kirib, bunda 1-oy o'tmay muftilikka o'tdi. Necha yillar shunda muftilikda faolyat yuritdi" [Muin, 1923]. Ushbu ma'lumotlar muftiylik lavozimi o'z davrining yuksak e'tiborli lavozimlaridan bo'lib, Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining yetuk iqtidori tufayli bunga erishganligini yana bir bor isbotlaydi. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, ayrim tadqiqotlarda Behbudiyning sud-huquq tizimida olib borgan islohotlari bugungi islohotlarning debochasi bo'lganligi e'tirof etiladi, ya'ni aynan Behbudiy tomonidan o'g'irlik uchun qo'li kesilgan kishilar oilasi, jamiyatga qanchalik ziyon keltirishi raqamlarda hisob-kitob qilinib, uning salbiy oqibatlari isbotlab berilgan va o'sha davrda sud-huquq tizimida "afv" tushunchasi ommalashgan.

Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'rifat va adabiyotga bo'lgan qiziqishi oiladagi muhit, undagi ma'rifat va adabiyotga bo'lgan intilishda bo'lgan. Ma'lumotlarga ko'ra, Behbudiyning otasi Behbudxo'ja Solixo'ja o'g'li islom huquqshunosligi bo'yicha yirik mutaxassis bo'lib, bu borada ko'plab kitob va risolalar yaratgan. Bu haqida Mahmudxo'ja Behbudiyning o'zi maqolalarining birida otasi yozgan "Hidoya" ("Islom huquqiga sharhlar") asari uning taqdirida katta rol o'ynaganini alohida qayd etgan.

### ASOSIY QISM

Mahmudxo'ja Behbudiy tarix, adabiyot, geografiya fanlari bilan shug'ullanish barobarida siyosiy islohotlarga ham qiziqadi. Gazeta va jurnallar orqali jahonda sodir bo'layotgan siyosiy voqealar bilan yaqindan tanishib, Makkaga borish maqsadida 1899-yilda do'sti hoji Baqo bilan haj safariga yo'l oladi. Sakkiz oyga cho'zilgan ushbu safarda Mahmudxo'ja Behbudiy Arabiston, Misr va Turkiyaning ko'plab shaharlarida bo'lib, u yerdagi islohotlar, yangiliklar bilan tanishadi. Safar davomida turli mamlakatlar ahvoli, voqea-hodisalardan voqif bo'ladi, dunyoqarashi kengayib, fikri o'zgaradi. Turkistondagi siyosiy jarayonlarni har tomonlama tahlil qilib, Oq poshsho mustamlakasidan osonlikcha ozodlikka chiqish mumkin emasligini anglab yetadi. Mamlakatga qaytgach esa, Turkistonning chor Rossiyasidan ozod bo'lish yo'llarini qidira boshlaydi. Mahmudxo'ja Behbudiyning ushbu safari xususida manbalarda ham quyidagicha ma'lumotlar keltiriladi: "Behbudiy afandi 1317 (1899)da o'zining do'sti buxorolik hoji Baqo bilan haj safarig'a chiqdi. Borish-kelishda yo'lda Istanbul, Misr kabi katta shaharlarga kirib, ulardagi ba'zi yangi-eski maktablarni, aynuqsa, Misrdag'i "Jome' ul-Azhar"ni ziyorat etdi. Qaytishda Misr va Istanbuldan turluk yangi kitoblar kelturdi. Oz vaqtda dunyo siyosatidan va zamon ahvolidan xabardor

bo'ldi" [Muin, 1923].

Mahmudxo'ja Behbudiy o'z yurtining ozodlikka erishishi uchun, eng avvalo, ozod yurtni boshqara oladigan va o'z yurtini rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqadigan yangi avlodni tarbiyalash zarurligi g'oyasini ilgari suradi va shu g'oyalarni amalda tatbiq etish maqsadida yangi maktablar ochishga kirishadi. Natijada 1903-yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi qishlog'ida Siddiqiy Ajziy va Rajabamin qishlog'ida Abduqodir Shakuriy bilan hamkorlikda yangi maktablar ochadi. 1908-yilda Abduqodir Shakuriyning Rajabamindagi maktabini Samarqanddagi o'zining hovlisiga ko'chirtirib keltiradi.

Mahmudxo'ja Behbudiy 1903-1904-yillarda Qozon va Ufa shaharlariga borib u yerdagi yangi usul maktablari bilan tanishadi. Tatar ziyolilari, xususan, Ismoil Gaspirinskiy bilan yaxshi aloqani yo'lga qo'yadi. Uning ma'rifatparvarlik borasidagi ta'limotini qo'llab-quvvatlab, o'z o'lkasiga ham shunday ishlarni amalga oshirishga kirishadi. Xususan, Ismoil Gaspirinskiy muharrirligidagi "Tarjumon" gazetasini doimiy o'quvchisiga aylanib, o'zining maktab, maorif va madaniyat masalalari hamda ma'rifatparvarlik g'oyalarining targ'ibotiga bag'ishlangan qator maqolalarini mazkur nashrlarda chiqara boshlaydi. Natijada Ismoil Gaspirinskiy Mahmudxo'ja Behbudiyning "buyuk ma'rifatchi va o'zbek milliy jadidchilik yo'nalishining otasi" darajasiga ko'taradi ["Mahmudxo'ja Behbudiy", 2013].

Mahmudxo'ja Behbudiy yangi maktablar uchun bir necha darsliklar ham yozadi. Bugungi kunda Behbudiyning "Muntaxabi jug'rofiyayi umumiy" ("Qisqacha umumiy geografiya"), "Kitobat ul-atfol" ("Bolalar maktublari"), "Muxtasari tarixi islom" ("Islomning qisqacha tarixi"), "Madhali jug'rofiyai umroniy" ("Aholi geografiyasiga kirish"), "Muxtasar jug'rofiyai Rusiy" ("Rusiyaning qisqacha geografiyasi") kabi oltita darsligi O'zbekiston milliy ensiklopediyasiga kiritilgan bo'lsa, "Sarhil jug'rofiya umroni", "Tarixi islomiya", "Amaliyoti islomiya", "Risolayi asbobi savod yoki alifboyi maktab", "Risolayi jug'rofiyayi umroniy", "Kitob ul-majmuayi insho" kabi o'ndan ortiq darsliklari Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda.

Mahmudxo'ja Behbudiy 1904-1906-yillar oralig'ida Moskva, Peterburg, Nijniy Novgorod kabi shaharlarga ham sayohatlar uyushtiradi. Bu sayohatlar ko'proq oddiy sayohat emas, balki xizmat safari bo'lib, shulardan biri 1906-yilning 23-avgustida Nijniy Novgorodda Rusiya musulmonlarining turmush va madaniyati muammolariga bag'ishlangan qurultoyga Mahmudxo'ja Behbudiyning chaqirilishi bilan bog'liqdir. Ushbu qurultoyda Behbudiy turkistonlik qatnashuvchilar guruhini boshqaradi va minbarda nutq so'zlaydi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'rifatparvarlik harakatlari birgina maktab bilan rivojlanishi mushkul edi. Zamona taraqqiyoti va dunyo rivojlanishi bilan tanishib borish barobarida taraqqiyotga intilish uchun millat va Vatanning bugungi ahvolidan, kundalik hayotidan xabardor bo'lish, aholini g'aflat uyqusidan uyg'otish uchun bir mo'jizaviy oyna kerak edi. Behbudiy ushbu mo'jizani kashf etish uchun teatr va matbuotni tanlaydi. Teatr orqali razolat va qabohatni, ilm-ma'rifat, shijoat va taraqqiyotni ko'rsatib berishga harakat qiladi. Natijada 1911-yilda ilk o'zbek dramasi

“Padarkush” dunyo yuzini ko‘radi.

“Padarkush” dastlab 1912-yilda “Turon” gazetasida bosilgan. Lekin o‘sha davrning siyosiy to‘siqlari sabab mazkur drama 1913-yilda rasman nashrdan chiqarilib, kitob jildiga “Borodino jangi va Rusiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo‘lishining yubiley sanasiga bag‘ishlanadi”, degan yozuvlarning yozilishi dramaning o‘sha davrdagi “Tbilisi senzurası”dan oson o‘tmaganligini ko‘rsatadi.

“Tbilisi senzurası” haqida qisqacha ma‘lumot beradigan bo‘lsak, u 1837-yil 23-dekabrda, Rossiya imperatorining farmoni asosida Gruzıya boshqaruv organlari tomonidan bosmaxonalarada chiqariladigan kitoblarni senzuraдан o‘tkazish maqsadida tashkil etilib, 1848-yil 18-dekabrda rasman “Kavkaz senzura qo‘mitasi” (“Кавказский цензурный комитет”) nomini olgan. Ma‘lumotlarga ko‘ra, 1874-yil 3-noyabrda maxsus farmon bilan “Kavkaz Senzura qo‘mitasi”ning ta‘sir doirasi kengaytirilib, unga guzin, arman, turk, arab va fors tillaridagi materiallardan tashqari, imperiya tarkibidagi fransuz, nemis, italyan va polyak matbuoti va adabiyotini ham nazorat qilish topshirilgan. 1881-yilda “Senzura qo‘mitasi” qisman harbiylashtirilgan organga aylantirilib, 1884-yilda unga “Tbilisi matbaa inspektorligi” bo‘limi qo‘shilgan. 1906-yildan Senzura qo‘mitasi “Kavkaz matbuot ishlari bo‘yicha qo‘mita” (“Кавказский комитет по делам печати”) nomini olgan va inqilobchilarga qarshi faol kurashgan. 1914-yil 20-iyuldan 1917-yil 27-aprelgacha Birinchi jahon urushi davrida harbiy senzura to‘g‘risida muvaqqat farmon qabul qilinib, barcha turdagi boshmachilik faoliyatlari qat‘iy nazoratga olingan. “Senzura qo‘mitasi”ga aksilinqilobiy nashrlarni aniqlash va nashr etilishiga yo‘l qo‘ymaslik topshirilgan. 1918-yil 26-mayda Gruziyada matbuot senzurası bekor qilingan, biroq senzura siyosati qatag‘on yillarida ham amalda bo‘lgan [“Institute for Development”, 2022]. “Padarkush” ana shu senzuraдан mohirona yo‘l bilan o‘tkazilgan edi.

Dramaning sahnalashtirilishi ham yaqin bir yilga qadar amalga oshmagan. Pyesaning sahnalashtirilishi borasidagi murojaat xatlariga Behbudiy ham alam, ham kinoya bilan “Turkistonda bekor odam yo‘qki, xalq uchun ishlasa. Bekor kishi yo‘qki, teatr sahnasiga chiqib, “masxarabozlik” qilsa”, deb javob qaytargan.

Chin ma‘noda “Padarkush” – o‘zbek dramaturgiyasining birinchi namunasi bo‘lib, mutaxassislar tomonidan ham janr, ham mazmuniga ko‘ra yangi o‘zbek adabiyotini boshlab bergan asar sifatida baholangan. Drama hajman juda ixcham, mazmunan nihoyatda sodda bo‘lib, unda jaholat va nodonlik, o‘qimagan bolaning buzuq yo‘llarga kirib, o‘z otasini o‘ldirgani haqida hikoya qilinadi. O‘zbek dramaturgiyasiga, umuman, teatriga poydevor qo‘ygan ushbu asar Mirmuhsin Fikriyning “Befarzand Ochildiboy”, Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Yangi saodat” kabi qissalarining yaratilishiga turtki bo‘lganligi e‘tirof etilgan. Ayniqsa, Abdulla Qodiriy 1915-yildagi o‘zining bir maqolasida “1913-yilda chiqqan “Padarkush” pyesasi ta‘sirida “Baxtsiz kuyov” degan teatr kitobini yozib yuborg‘onimni o‘zim ham payqamay qoldim”, deb qayd etgan [Davron, 2013].

“Padarkush” dramasi dastlab Samarqandda 1914-yilning 15-yanvarida sahnaga qo‘yiladi. Mahalliy matbuotda pyesani ko‘rish uchun “Xalq nihoyat ko‘p kelib, bilek yetmagani va joyni yo‘qligi uchun uch-to‘rt yuz kishi qaytib ketgan”ligi yoziladi.

Toshkentda esa drama 1914-yilning 27-fevralida sahnaga olib chiqiladi. Spektakl boshlanishidan oldin Munavvarqori Abdurashidxonov teatrning jamiyat hayotidagi roli va o'rni haqida nutq so'zlaydi. "Padarkush"dagi bosh rol, ya'ni boy rolini Abdulla Avloniyning o'zi ijro etadi. Mahalliy matbuot bu kunni "tarixiy kun" deb nomlaydi.

1913-yildan boshlab Mahmudxo'ja Behbudiy matbuot ishlari bilan shug'ullana boshlaydi. Shuningdek, "Nashriyoti Behbudiya" nomli o'zining xususiy nashriyotini yo'lga qo'yib, Abdurauf Fitratning "Bayonoti sayyohi hindiy" asarini 1913-yilda ruschaga tarjima qilib, nashr ettiradi. Kitob do'konlari tarmog'ini tashkil etib, Samarqandda ommaviy kutubxona faoliyatini yo'lga qo'yadi va uni "Kutubxonayi Behbudiy" deb nomlaydi. Mazkur muassasaga tashrif buyurgan har bir kishi o'ziga ma'qul bo'lgan kitobni kutubxonaning alohida fondidan sotib olishi ham mumkin bo'lgan. Ushbu kutubxonaga Behbudiyning 1899-1900-yillardagi va 1914-yildagi haj safarlaridan keltirgan kitoblari kirgan. "Oyina" jurnalining 1913-1915-yillarda chiqqan har bir sonida "Kutubxonayi Behbudiy"da o'qishga tavsiya etilgan va kutubxona qoshidagi kitob do'konida sotiladigan adabiyotlar ro'yxati e'lon qilib borilgan. Shuningdek, kutubxonada keng va shinam qiroatxona ham tashkil etilgan bo'lib, Behbudiyning nevarasi Nodim Behbudiyning xotirlashicha, kitob va gazeta-jurnallar o'qish uchun qiroatxonaga tashrif buyurgan har bir kishiga, Behbudiyning ko'rsatmasiga binoan, "har qanday aqliy, ilmiy mehnat chog'ida miyaga hamda xotiraga quvvat bo'ladi", deb qaynoq qandli choy berilgan. Bu esa Mahmudxo'ja Behbudiyning naqadar dilkash, fidoyi inson bo'lganini, bilim va ma'rifatga intiluvchi odamlarga hurmat va e'tibor bilan qaraganini yana bir bor tasdiqlaydi [Haydarov, 2020].

Mahmudxo'ja Behbudiy 1913-yilning aprel oyidan turkiy va forsiy tillarda, haftada ikki marotaba, dastlab ikki, so'ngra to'rt sahifada chop etiladigan "Samarqand" gazetasining faoliyatini, ushbu gazeta moddiy tanqislik sabab 45 ta sonidan so'ng to'xtagach, 1913-yilning 20-avgustidan esa "Oyina" jurnalining nashrini yo'lga qo'yadi. "Oyina" jurnali suratli, haftalik jurnal bo'lib, asosan o'zbek tilida nashr qilingan va unda ixcham forsiy she'rlar, maqolalar, ruscha e'lonlar ham berib borilgan. Jurnalning Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg'oniston, Hindiston va Turkiya davlatlarigacha tarqatilgani va uning nashri 1914-yil oktabr oyiga qadar davom etgani, maqolalarda Turkiston o'lkasini isloh qilish g'oyalari ilgari surilganligi va bu maqolalar o'quvchilar tomonidan katta qiziqish bilan kutib olinganligi ko'plab tadqiqotlarda yoritilgan. Jumladan, o'zbek dramaturgi va jurnalisti Ziyoy Said tomonidan "Oyina" jurnaliga "Boshda haftada bir marta va ikkinchi yildan e'tiboran 15 kunda bir qatla chiqib, yigirma oy chamasi davom qildi... Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg'oniston, Hindiston va Turkiyagacha tarqalar edi... Jadidlarning sevikli jurnallari edi", deb ta'rif berilgan [Said, 1927].

Mahmudxo'ja Behbudiy 1914-yilning 29-mayida navbatdagi sayohatini amalga oshirib, Ashxobod, Krasnovodsk, Kislovodsk, Pyatigorsk, Jeleznovodsk, Rostov, Odessa, shuningdek, Istanbul va Adana, Quddus, Bayrut, Yofa, Xalil ar-Rahmon, Port-Said va Shom shaharlarida bo'lib, sayohat xotiralari, yo'l taassurotlari, kishilar bilan uchrashuvlarining ibratli tomonlarini "Oyina" jurnalida yoritib borgan.



Behbudiy milliy til masalasiga alohida e'tibor qaratib, "Har millat o'z tili ila faxr etar" degan maqolani nashr ettirgan va unda ona tilini rivojlantirishga alohida urg'u bergan. Shuning barobarida, millatning taraqqiyoti uchun bir necha til bilishni shart deb hisoblab, "Oyina" jurnalining 1913-yil avgustdagi, birinchi – nishona sonidayoq, "Ikki emas, to'rt til lozim" degan maqola chiqarib, unda har bir kishi o'zbek, tojik, arab, rus va hatto biror uzoq xorijiy til, masalan, fransuz tilini bilish shart degan qoidani ilgari surgan [Behbudiy, 1913].

Mahmudxo'ja Behbudiyning 1901-yildan boshlab to umrining oxiriga qadar "Turkiston viloyatining gazetasi", "Taraqqiy", "Hurriyat", "Turon", "Sadoyi Turkiston", "Najot", "Mehnatkashlar tovushi", "Tirik so'z", "Vaqt", "Samarqand", "Oyina" kabi gazeta va jurnallarda chop etgan maqolalarining soni uch yuztadan ortishi tadqiqotlarda keltirilgan. Bu haqida Hoji Muin quyidagicha ma'lumot bergan: "Bu 18 gazeta va majmualarda Behbudiyning ikki yuzga yaqin maqolasi bosilg'ondurkim, ular bir yerga to'plang'onda 5-6 yuz betlik bir kitob bo'lur. Behbudiyning mazkur gazeta va majmualarda bosilg'on maqolalarining ko'bisi muhim mavzularda yozilg'on bo'lub, hanuz eskirgan emas va bu kunlarda ham biz uchun dasturulamal bo'laturg'on foydaluk so'zlardur" [Muin, 1923].

Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan ilgari surilgan yana bir masala millat masalasi ediki, bunda o'sha davrda millat sha'nini oyog'osti qiluvchi fikr mulohazalarga qarshi chiqish – jasorat talab qilar edi. Ana shu jasorat Behbudiyda bor edi. Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston xalqini o'z nomi bilan atamoq lozimligini talab qilib, "Sart so'zi majhuldur" degan maqola yozadi. Maqolada, "alhosil, ushbu kun Turkistoni Rusiyaning besh viloyatini va Buxoro xonligining barcha turk va o'zbek xalqini "sart" demak va yozmak insofsizlik, istibdod-roy'i boisi shubha va tafriqadur, buyuk xatodur, vassalom" deb, sho'ro majlisidan iqtibos keltiriladi [Behbudiy, 1915].

Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti va ilmiy merosi o'rganilar ekan, uning davlat miqyosidagi rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritganligi xususida ham qator ma'lumotlar uchraydi. Aniqlik, 1917-yil Rossiyadagi oktabr inqilobidan so'ng chor Rossiyasi ag'darilib sovet hukumati o'rnatilgach, Toshkentda ham uning boshqaruvi shakllantirilib, Xalq komissarlari kengashi va Turkiston Markaziy ijroiya qo'mitasi tuziladi. Bu ishlarning boshida Turkiston kommunistik partiyasi turib, 1918-yil aprel oyida kommunistlarning navbatdagi Qurultoyi o'tkaziladi. Ushbu qurultoyda, milliy masalalar bo'yicha komissariat faoliyati ham yo'lga qo'yilib, uning asosiy vazifasi sovetlar mafkurasini xalq orasida targ'ib qilish bo'ladi.

Turkiston jadidchilik harakati yetakchisi Mahmudxo'ja Behbudiy o'sha davrda xalq orasida juda katta obro'-e'tibor qozongan va bu sovet hukumati mutasaddilarining nazaridan chetda qolmagan. Natijada Mahmudxo'ja Behbudiyga yangi tuzilgan milliy masalalar bo'yicha komissariat organlarida ish taklif qilingan. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix institutining katta ilmiy xodimi Rinat Shigabdinovning arxiv materiallariga asoslangan tadqiqotlarida keltirilgan ma'lumotlariga ko'ra, Behbudiyga milliy masalalar bo'yicha komissariatning turkiy millat masalalari bo'limini boshqarish topshirilgan. Komissariat nizomiga muvofiq, millatlar vakillari saylovlari o'tkazilgunga qadar quyidagi shaxslar vazifalarga:

qozoq millatidan Xojikeldieva Kirg'iz, tatar millatidan Abdurahmon Abduxoliqov, turkiy millatidan Mahmudxo'ja Behbudiy, qipchoq millatidan Muhammadjon Shermuhamedov" tayinlangan [Shigabdinov & Abdullayev, 2020].

Komissar o'rinbosari sifatida ma'naviy va ma'rifiy masalalarga mas'ul bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy tashabbusi bilan shu davrda "Ishtirokiyon" ("Kommunist") gazetasi chop etila boshlangan. 1918-yilga kelib Mahmudxo'ja Behbudiyning siyosiy faolligi ancha oshib, Turkiston hukumatining bir necha Qurultoylarida ishtirok etgan. Lekin sovet kommunizmining siyosiy mafkurasini noto'g'ri ekanini anglab yetgan Mahmudxo'ja Behbudiy 1918-yilning oktabr-noyabr oylarida mazkur tizim tarkibidan chiqishga qaror qilgan. Hujjatlarga ko'ra, Turkiston komissarlar Kengashi raisi Malkovning imzosi bilan 1918-yil 5-noyabrdan e'tiboran, Mahmudxo'ja Behbudiy rahbarlik qilgan sektor tarqatib yuborilgan, sektor a'zolariga berilgan targ'ibot-tashviqot olib borish huquqini beruvchi guvohnomalar bekor qilingan.

Alloma umrining taxminan oxirgi ikki yili ilk sho'ro davriga to'g'ri kelgan. Uning xorijiy tillarni bilishi, keng mushohada va ko'p bilim egasi ekanligi, sho'rolarning turli jabhalarda boshlagan "inqilobiy" ishlariga aynan Behbudiyning jalb etilishiga sabab bo'ladi. U hatto Eron va Afg'oniston davlatlariga konsul qilib yuborishgacha taklif qilinadi. Biroq Behbudiy o'z sog'ligi yomonligini bayon qilib bu lavozimdan bosh tortadi [Shodmonov, 2023]. Yana bir tadqiqotda quyidagicha ma'lumotlar ham keltiriladi: "1918-yilda bolsheviklar undan qutulish uchun Afg'onistonga Sho'ro hukumati nomidan elchi qilib yuborish harakatiga tushadi. Behbudiy siyosiy o'yinni anglab, e'tiroz bildiradi, albatta" [Haydarov, 2020]. Biroq ushbu hujjatlar Behbudiyning Turkiston siyosiy doirasida munosib o'rni bo'lganligini ko'rsatadigan beqiyos dalildir.

Turkiston muxtoriyatini zo'r mamnuniyat bilan qarshi olgan Mahmudxo'ja Behbudiyning ozodlik haqidagi orzulari vaqt o'tgan sayin sarobga aylanib boradi. U muxtoriyatning nechog'li zaif ekanligini yaxshi bilar, shuning uchun Turkiston xalqlarining birlashmog'ini va shu orqaligina muxtoriyatni saqlab qolinishi mumkinligini jon-jahdi bilan tushuntirishga urinardi. Bu haqida Behbudiy o'zining "Muhtaram samarqandiylarg'a xolisona arz" maqolasida "Bovurlar! Bilingki, hozirda Turkistondagi barcha xalqlar uchun muxtoriyat e'lon qilindi va siz bilingki, haq olinur, berilmas. Inchunin, muxtoriyat-da olinur, berilmas... Biz bo'shlik qilsak va Turkistondagi xalqlar birlashib, muxtoriyat yo'liga sa'y qilmasak, albatta, hozirgi qog'oz ustidagi muxtoriyatimizni ham yo'q qilurlar..." degan, xitob bilan chiqadi [Qosimov, 2016]. Siyosiy vaziyatni tahlil qilib, yaxshi tushunib turgan Behbudiy "qog'oz ustidagi" muxtoriyatni yo'q qiluvchi illat milliy birlik va ahillikning yo'qligi, amaldorlarning nafsoniyat va g'urur havosiga berilishi ekanidan ogohlantiradi, istiqlolni amaliyotga aylantirish uchun turli tabaqalarning ittifoq tuzib, unga xizmat qilishi lozimligini ta'kidlaydi.

Turkiston muxtoriyatining tuzilishi ozodlik uchun bir qadam ekanligini yaxshi bilgan sovet hukumati uni osonlik bilan qo'ldan chiqarmasligi ayon edi. Oqibatda mahalliy aholi orasida fitna va ig'vo qo'zg'atish davom etardi. 1917-yilning bahorida Buxoro amiri rus elchixonasining maslahati bilan islohot e'lon qiladigan bo'ladi.

Samarqand ijroiya qo'mitasi Buxoroga bir necha kishilik hay'at yubordi. Ular orasida Behbudiy ham bo'lgan. 1917-yil 7-aprel islohot e'loni oldindan mo'ljallangan tantana fojiaga aylanadi. Amir va yoshlar, mullalar va jadidlar o'rtasida nizo paydo bo'ladi. Elchixona buning aybini Behbudiyga qo'yadi. Millatni ich-ichidan qayrash va nizo chiqarish izchil davom etadi. Behbudiy mazkur syezdda minbarga chiqib, bor voqeani tushuntirib beradi. Bu haqda "Buxoro voqealari va daf'i tuhmat" degan maxsus maqola ham yozadi [Behbudiy, 1917a]. Biroq vaziyat keskin tus oladi. Behbudiy Toshkentga kelib Turkiston rus sovet hukumati rahbarlari bilan muzokaralar olib boradi, lekin u ham natija bermaydi.

Behbudiy "Turkiston hukumati bolsheviklar qo'linda bo'lmay, balki xaloyiq qo'linda bo'lsun. Ba'zi musulmon va ruslar Turkistondan saylanib, Turkiston hukumatini idora qilsun va qonunlar chiqarmoqqa haqli bo'lsun", degan kutilmagan taklifni oldinga suradi [Behbudiy, 1917b]. Bu kutilmagan taklif mustaqillik tomon qadam bo'lib, turkistonliklarni birlashishi talab qilar edi. Afsuski bu amalga oshmaydi. Ushbu ittifoq xususida Behbudiy "...Shundoq bilmoq kerakki, butun Turkiston xalqi ittifoq etsa, qon to'kilmas. Butun Turkiston ittifoq etsa, 15 miliyunlik bir quvvat ummong'a kelurki, shunga yer titraydur", deb yozadi [Behbudiy, 1917d].

Shundan so'ng, Behbudiy yana haj ziyoratiga otlanishga qaror qiladi. O'sha davrda haj ziyoratiga uch yo'nalishda: Farg'ona vodiysi va Qoshg'ar orqali Hindistonga o'tib kemalar orqali borish, Rossiya orqali Odessagacha, undan so'ng dengiz bilan Turkiya orqali va uchinchi yo'li Afg'oniston va Turkmaniston orqali Ozarbayjonga, so'ng Kaspiy dengizidan o'tib ziyoratga borilgan. Hujjatlarning guvohlik berishicha, Behbudiy ikki nafar hamrohi bilan Buxoro amirligi orqali o'tmoqchi bo'lishgan. Lekin ular amirlikning chegarasida qo'lga olingan va Shahrisabzdagi qamoqqa tashlangan. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, ijtimoiy-siyosiy vaziyatga ko'ra, Mahmudxo'ja Behbudiyning chindan ham haj ziyoratiga otlanganligi yoki ozodlik yo'lidagi kurashini davom ettirish uchun Kavkaz, Turkiya yoki Yevropa davlatlariga chiqib ketmoqchi bo'lganligi haqidagi ba'zi bahsli mavzular ham yo'q emas. Hatto ayrim tadqiqotlarda uning Orenburg orqali Antanta davlatlaridan yordam so'rash uchun yo'lga chiqqanligi qayd etiladi [Sayid, 2020; Saidov, 2024]. Mahmudxo'ja Behbudiyning xohish-istagi va rejalarining bu yog'i bizga qorong'u.

Behbudiy hamrohlari bilan qamoqqa tashlangach, Buxoro amiri Said Olimxon va uning vaziri Qushbegi bilan yozishmalar olib borgan. Mahkumlar qamoqxonada ikki oy saqlanganidan keyin Qarshi shahridagi qamoqxonaga olib ketilgan. Mahmudxo'ja Behbudiy hamrohlari Mardonqul Shomuhammadzoda va Muhammadqul O'rinboy o'g'li bilan birga Qarshi begi Tog'aybek buyrug'iga ko'ra zindon yaqinidagi "podsholik" chorbog'ida amirning Qarshi shahridagi voliysi Nuriddin Og'aliq tomonidan 1919-yilning 25-martida vahshiyona qatl qilingan.

Xususan, Hoji Muin Shukrulloh Behbudiyning shahid bo'lganligi xususida shunday ma'lumotlarni keltiradi: "...Shunda alarning qatlari o'zlariga bildirilgan va o'zlari uchun shu bog'da to'rt qabr qazdirilgan. So'ngra Behbudiy afandi va yo'ldoshlari tahorat olib, namoz o'qimoqchi bo'lg'onlar. Lekin shul chog'da, rahmsiz jallod mahoviylari ila yetishub kelib, alarni namoz o'qirg'a qo'ymagan va eng avval



Behbudiy hazratlarini joynamoz ustida boshini kesgan. Bu holni ko'rib, Mardonquli, Mahammadquli va Ahmad afandilar tavid va shahodat kalimalarini o'qib, o'limni kutib turg'onlar. Andan keyin jallod alarning boshini bir-bir kesgan, so'ngra bekning xizmatkorlari mazkur shahidlarning nishlarini chiqarib, o'zlari qazg'on qabrlarg'a ko'mganlar va qabrlarini (bilinmasun deb) yer ila tegiz (tekis) etganlar" [Muin, 1922].

Behbudiy va uning hamrohlarini qo'riqlash uchun qo'yilgan navqiron askar yigit (Hoji Muin ma'lumotlarida farg'onalik 17 yoshli Sodiqjon ismli yigit ekanligiga oydinlik kiritiladi) mahkumlar bilan muloqotda bo'lib, Behbudiy bilan yaqindan tanishishadi. Qarshi begi huzurida har uchala asirni himoya qilishga harakat qilgan nazoratchi askar yigitga Bek "biz uch kishini qatl etishimiz kerak, istasang, to'rt kishini ham qatl etishimiz mumkin" degan tahdidli so'zlarni ham yog'diradi [Shigabdinov & Abdullayev, 2020]. O'lim jazosini ijro etishga ruxsat esa Buxorodan keladi. Bugungi tadqiqotlar va arxiv hujjatlarida Behbudiyning o'limiga Buxoro amiri Said Olimxon bevosita aloqador bo'lganligi, Said Olimxon va Bosh vazir Qushbening Rossiya hukumatining Buxorodagi vakillari bilan yozishmalari saqlanib qolganligi vaziyatni yanada oydinlashadi. Jumladan, 1919-yil 28-iyunda Turkiston o'lkasi musulmon tashkilotlari byurosi yig'ilishining bayonnomasida yozilishicha, Behbudiyning farzandi Mas'ud Behbudiy Turkiston o'lkasi musulmon tashkilotlari byurosiga Buxoro amirligi hukumati tomonidan qamoqqa olingan otasini ozod qilishni so'rab, ariza orqali murojaat qoldirgan. Byuro yig'ilishi Turkiston tashqi ishlar komissariati bu ishni ko'rib chiqish taklifi bilan 1919-yil 28-iyunda qaror qabul qilgan, vaholanki, bu vaqtda Behbudiyning o'ldirilganligiga 3 oydan oshgan bo'lgan.

Byuroning Behbudiy ishini ko'rib chiqish to'g'risidagi qaroridan so'ng, Turkiston Respublikasi Tashqi ishlar xalq komissarligi va Buxoro amirligining devonxonasi o'rtasida yozishmalar boshlangan. Arxivdan vazir Qushbegi imzosi bilan byuroga yozilgan quyidagi mazmundagi hujjat topilgan: "Sizning 1919-yil 10-iyuldagi Mahmudxo'ja Behbudiy, Mullamuhammadquli O'rinboev, Mardonquli Shomuhammedovlar (Behbudiyga hamroh bo'lganlar) ishiga oid yo'llagan xatingiz bo'yicha ma'lum qilamanki, ularning qamoqqa olinishlari bo'yicha men Qarshi begiga so'rov jo'natdim. Bekning ma'lum qilishicha, Mahmudxo'ja Behbudiy, Mullamuhammadquli O'rinboev, Mardonquli Shomuhammedovlar xonlikdagi xalq qo'zg'oloni paytida chegarani noqonuniy tarzda kechib o'tishga harakat qilishgan. Shuning uchun ular chegara qo'riqchilari tomonidan qo'lga olingan va Bek huzuriga olib borilgan. So'roqlar paytida ma'lum bo'lishicha, ular haj ziyoratiga otlangan ekanlar. Ular Bek tomonidan qo'lga olingan va bu haqda Amir janoblariga axborot berilgan. Amirning buyruqlari bilan ziyoratchilar yo'llarida davom etishlari uchun qo'yib yuborilgan. Ular shundan so'ng beklik hududini tark etganlar" [Shigabdinov & Abdullayev, 2020]. Turkiston hukumati nomiga Qushbegi imzosi va muhri bilan shu mazmundagi rasmiy xat jo'natilgan.

Mahmudxo'ja Behbudiyning qatl etilganligi haqidagi xabar o'sha paytdagi poytaxt bo'lgan Samarqandga 1920-yilning aprelida, ya'ni alloma o'limidan roppa-rosa bir yil o'tib ma'lum bo'lgan. Behbudiy vafotidan butun Turkiston motam tutgan. Mahmudxo'ja Behbudiy sharafiga o'nlab marsiyalar yozilgan. Jumladan, Abdurauf

Fitrat "Behbudiylarning sag'anasini izladim" nomli she'r yozgan bo'lsa, Sadriddin Ayniy "Behbudiylar ruhig'a ithof" degan marsiya bitgan:

### **Behbudiylar ruhig'a ithof**

(Shabi hijron havosig'a)

Sani mundin buyon Turon ko'rolurmu, ko'rolmasmu?  
 Saning mislingni Turkiston topolurmu, topolmasmu?  
 San, ey ustodi oliyshon, eding ajubai davron,  
 Otingni tilga har inson buyuk hurmat-la olmasmu?  
 Saning tarixiy davroning, saning osoru urfoning,  
 Saning noming, saning shoning jahon qoldiqcha qolmasmu?  
 Saning ko'ksung cho'kulganmu, saning beling bukulganmu?  
 Saning qoning to'kulganmu? Muni(ng) hech kim so'rolmasmu?  
 Boshingni kesduran qotil, u badiyat, u sangin dil,  
 Xudodan gar esa g'ofil, xaloyiqdan uyolmasmu?  
 Vatan avlodi yod etdi, sani hurmat-la shod etdi,  
 Va lekin intiqomingni ololurmu, ololmasmu?  
 Jahonda zulmdur zohir, jahon xunxo'r, jahon jobir,  
 Jahondan bir zamon oxir sitamgarlik yo'qolmasmu?  
 Behishtu hurii g'ilmon, sanga Haq aylasun ehson,  
 Sanga rahmat, sanga g'afron Xudoyim yetkazolmasmu?!  
 ["Sen Turonning quyoshi", 2016]

Sadriddin Ayniy va Mahmudxo'ja Behbudiylarning birinchi uchrashuvi 1908-yilda bo'lgan. Bu haqda Ayniy shunday hikoya qiladi: "Behbudiylar hazratlari ko'rinishda g'oyat mahobatli edi. Ahvolig'a voqif bo'lmag'on kimsa (u kishini) mutakabbir deb gumon qilur edi. Lekin, haqiqatda muloyim suhbatlik, takallufsiz bir odam edi" [Mahmudov, 2019].

Sadriddin Ayniy Samarqandda mudarrislik qilib yurgan kezlari Behbudiylar uning maktabiga ko'p marotaba kelganligi va tolibi ilmlarga mav'izalar qilganligini yozadi. 1919-yil fevralda Toshkentga borib kelgan Behbudiylar safar taassurotlari bilan o'rtoqlashmoq istagida Samarqand muallimlarini yig'ishni buyuradi, ammo xastaligi bois majlisga kelolmaydi. O'sha kezlarda ikki ma'rifatparvar ko'chada uchrashib qoladi. "Mana bu oxirgi ko'rinishimiz bo'ldi. Oradan bir necha kun o'tar-o'tmas safarga chiqub ketganligini ham shul safarda Qarshi shahrida shahid bo'lg'onini eshitib, hayrat va hasratda qoldim", deb qayd etadi Ayniy [Temirov, 2016].

Mahmudxo'ja Behbudiylar vafotidan oldin vasiyat maktubini yozib, yashirin tarzda nazoratchi askar yigit Sodiqjonga berib qo'yadi. Behbudiylarning iltimosiga ko'ra, uning o'limidan so'ng nazoratchi yigit bu maktubni Samarqandga olib borib, marhumning do'stlariga topshiradi. Faqat, oradan deyarli bir yil o'tganidan keyingina Behbudiylarning so'nggi kunlari tafsilotlari ma'lum bo'ladi. Mutafakkirning o'z davrining yetuk ziyolilariga yozgan maktub-vasiyati uning safdoshlari, hukumatdagi do'stlari va shogirdlari tomonidan davriy matbuotda e'lon qilinadi.

Manbalarga ko'ra, vasiyatnomada Mahmudxo'ja Behbudiylarning do'stlari Siddiqiy Ajziy, Abdurauf Fitrat, Akobir Mahdum, Vadud Mahmud, Abdulqodir Shakuriy va Sadridin Ayniylarning nomlari zikr etilgan. Vasiyatnomada "Ey, Turkiston Maorif ishlarida bo'lg'on o'rtoq va o'g'lonlarim! Mani o'zim garchand bandi bo'lsam-da, sizlarni esimdand chiqarmayman va sizlarga bir oz vasiyat qilib o'taman. Meni sevar o'rtoqlarim! Manim so'zlarimni quloqlaring'izg'a olingizlar! Biz ikki oydan beri Buxoro shaharlarida bandi bo'lib yurib, axir o'n kundan beri bir yerda (Qarshi shahrida) bu zolimlarning qo'lig'a tushib band bo'ldik. Jadid – kofirlik otini ko'tardik. Sipohlar ichida tilchilik (josuslik demoqchi) otini ko'tardik. Bu yerdan qutulmog'imiz gumon bo'ldi. O'rtoqlarim Siddiqiy, Ayniy, Fitrat, Qori va Akobir Mahdum va o'g'lonlarim Vadud Maxdum, Abdulqodir Shakuriy! Sizlarga vasiyat qilaman: Maorif yo'lida ishlayturg'on muallimlarning boshini silangizlar! Maorifg'a yordam etingiz! O'rtadan nifoqni ko'taringiz! Turkiston bolalarini ilmsiz qo'ymangizlar! Har ish qilsangiz jamiyat ila qilingizlar! Hammaga ozodlik yo'lini ko'rsatingizlar! Bizdek maorif qurbonlarini yo'qlangizlar!" deb xitob qilinadi [Muin, 1922].

Behbudiylarning vahshiyona va xiyonatkorona o'limi xalqni junbushga keltiradi. Natijada 1920-yilning aprelida Samarqand shahrida Buxoro amiri va uning johil amaldorlariga qarshi katta umumxalq namoyishi bo'lib o'tadi. Namoyishchilar amirdan Behbudiylar qotillarini jazolashni qat'iy talab qilishadi. Biroq amirlik tomonidan xalq talabi inobatga olinmaydi. O'zining so'nggi kunlarini o'tayotgan amirlikning bunday beparvoligi ushbu qotillikda amirlik va sovet hukumatining maxfiy kelishuvi hamda "Turkiston mintaqasidagi ziyolilarni birin-ketin yo'qotishga qaratilgan siyosiy harakat" natijasi ekanligini yana bir bor ko'rsatadi.

1920-yil sentabr oyi boshida amir hukumati ag'darilib, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil topganidan so'ng, Mahmudxo'ja Behbudiylarning Samarqandda faoliyat yuritayotgan shogirdlari, safdosh va maslakdoshlari uning qabrini izlab topish, qotillarni aniqlash harakatiga tushishadi. 1920-yil noyabrda Behbudiylar vafotini taftish etish bo'yicha yetti kishidan iborat komissiya tuziladi. Komissiya a'zolari zimmasiga Qarshiga borib, marhumning qabrini hamda qotillarini topish vazifasi yuklanadi. Biroq Qarshida ushr-soliq nazorati idorasining boshlig'i bo'lgan Nuriddin Og'aliq Ahmadxo'ja o'g'li (aynan Behbudiylarni qatl etilishida bosh-qosh bo'lgan) komissiyasining Qarshidagi faoliyatiga yo'l qo'ymaydi. Keyinchalik, 1923-yilda esa sud tomonidan soliqlar idorasining taftishi natijasida aniqlangan kamomadlar sabab Nuriddin Og'aliqlarning o'zi otishga hukm qilinadi.

Nuriddin Og'aliqlarni otish hukmi 1923-yil 19-sentabr kech soat yettida Registonda bo'lib, besh mingga yaqin kishi ishtirok etadi. Bu haqda gazetada "Behbudiylar va rafiqlarining o'ldirilishiga sabab bo'lg'on fuqaro hukumatining molig'a xiyonat qilgan mazkur Og'aliqlar 19-sentabrda (1923-yil) odil hukumatimiz tomonidan otildi, demak, Behbudiylar va rafiqlarining o'chlari olindi", deb yoziladi [Hayitov & Rahmonov, 2020]. Shundan so'ng, Sadridin Ayniy tomonidan "Mufti Mahmudxo'ja Behbudiylar va rafiqlarining o'chlari olindi", "Mahmudxo'ja Behbudiylar haqida", "Mufti Mahmudxo'jaga bag'ishlab", "Mahmudxo'ja va rafiqlarining musibati", "Buyuk motam kuni" kabi maqolalar chop etiladi. Ayrim tadqiqotlarda Buxoro axbori

gazetasida “Musofir” taxallusi ostida bosilib chiqilgan mazkur maqolalar muallifi ham Sadriddin Ayniy bo'lganligi keltiriladi [Temirov, 2016].

Shunday qilib, Mahmudxo'ja Behbudiy o'limidan to'rt yil o'tib qotil o'zining jazosini oladi. Buxoro hukumati tomonidan mas'ullarga Behbudiy qabrini qidirib topib, uning haykalini o'rnatish vazifasi topshiriladi. Biroq bu safargi topshiriq ham oxiriga yetkazilmaydi. Behbudiyning qabri topilmaydi. Taxminlarga ko'ra, Behbudiyning qabri Qarshi shahridagi “Eshoni shahid” qabristonida ekanligi, 1926–1936-yillarning matbuot nashrlari hamda arxiv hujjatlariga ko'ra, darvozadan ellik qadamcha ichkarida “Eshoni shahid” maqbarasi, uning quyi etagiga yaqin joyda Behbudiyning qabri bo'lganligi, qabr ustiga ayvon ham tiklanganligi, keyinchalik bu ayvon ham buzib tashlanib allomaning qabri xususidagi ma'lumotlar ham yo'qolib borganligi haqidagi ma'lumotlar tadqiqotlarda keltiriladi [Ravshanov, 2014].

1920-yilda Qarshi shahrining nomi Behbudiy, deb o'zgartiriladi. “Ozod Buxoro” gazetasining 1923-yil 19-oktabrdagi sonida: “Turkistonning mashhur jamoat xodimlaridan Behbudiyning ismini umrbod (abadiy) qoldirmoq uchun Qurultoy (Buxoro Respublikasi qurultoyi) Qarshi viloyatini Behbudiy viloyati deb ismlamakka qaror berdi”, deb xabar beradi. Demak, Behbudiy nomi Qarshi viloyatiga 1923-yildayoq berilgan. “Ozod Buxoro” 1923–1925-yillar davomidagi sonlarida ham Qarshi viloyati haqida fikr bildirilsa, uni “Behbudiy viloyati” deb qayd qilinganligi bilan bog'liq arxiv ma'lumotlari uchraydi [Hayitov & Rahmonov, 2020].

1926–37-yillarda, ya'ni 11 yil davomida Qarshi shahri Behbudiy nomi bilan yuritilgan. Biroq adib nomining adabiy lashtirilishi shunchaki bir niqob bo'lib, 1926-yildayoq jadidchilikni aksilinqilobiy, aksilsho'roviy harakat sifatida qoralash boshlab yuborilgan. Stalin qatag'onlari boshlangach, ya'ni 1936-yilda uning nomi olib tashlanib, yana Qarshi nomi qaytarilgan.

Mahmudxo'ja Behbudiy maqolalarida Turkistonda keng ko'lamli siyosiy, iqtisodiy, ta'lim islohotlarini amalga oshirish g'oyalari ilgari surilgan. Mahalliy aholining taraqqiyotga to'siq bo'luvchi eski urf-odatlar va eskicha qarashlardan voz kecha olmayotganlariga qarata “...biz ham musulmonmiz, faqat taraqqiyotni, farovonlikni, ma'rifatni istaymiz. Fursat ketib boryapti, biz qoloqlashib ketdik, yangilikka intilishimiz, yangiliklarni o'zlashtirishimiz lozim. Qoloqligimiz tufayli biz mustamlakaga aylandik, bizni tobe qilib olishdi. Endi o'tmishimiz buyuk deb yuravermasdan, xatolarimizdan to'g'ri xulosalar chiqarishimiz, rivojlanish yo'llarini izlashimiz kerak. Boshqalar ham bizni hurmat qilishi, ular bilan teng mavqeda muloqotga kirishishimiz, musulmonlar manfaatlari himoyasi uchun nimalar qilishimiz zarurligi haqida bosh qotirish vaqti keldi” degan g'oyalarni ilgari surgan.

Mahmudxo'ja Behbudiy to'y va aza dabdabalariga berilish bu ilmsizlik, soxta obro' va hashamat ishtiyoqi bilan yashash, vaqtni zoye ketkazish, pora olish, korrupsiya, poraxo'rlik va ilm ahliga bepisandlikni taraqqiyotga to'siq bo'ladigan illatlar deb atagan. Alloma porani o'z maqolalarida rishva deb nomlagan va pora-rishva olishni la'natlagan.

Ma'naviy yetuklik o'zlikni anglashdan boshlanishini, jamiyatdagi jaholat hattoki insonlarning o'z farzandiga ma'nosiz ismlar qo'yilishi (“Patxulla”,

“Obduraxmon” kabi buzib yozilishi yoxud bolalarga Norqul, Toshmurod, Boltaqul kabi ma’nosiz ismlar) bilan ham namoyon bo‘lib turishini afsus bilan bayon etgan [Shodmonov, 2023].

Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyatining barcha ma’lum va noma’lum sahifalarini tadqiq qilar ekanmiz, uning yuksak madaniyatli va ma’naviyatli jamiyatni orzu qilganligini guvohi bo‘lamiz. Alloma o‘z maqolalarida qo‘ldan berilgan ozodlik oqibatida xalq yuz yillar asirlik domida qolib, o‘z qadr-qimmatini unutib, juda ko‘p moddiy va ma’naviy zararlar ko‘rishidan nadomat chekadi. Shuningdek, Turkiston o‘lkasi dunyo hamjamiyatidan ortda qolganligini, bu yerda islohotlar, o‘zgarishlarni amalga oshirish vaqti kelganligini, uzoq yillar davomida adoqsiz ichki nizo va urushlar, XV–XVII asrlardan boshlangan parokandalik Turkiston iqtisodiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, uning rivojlanishdan qolib ketganligini ta’kidlaydi. Bularning barchasidan xulosalar chiqarib, chor Rossiyasi davrida Turkistonning mustamlakaga tushib qolganligi sabablarini birinchilardan bo‘lib matbuotda chop ettiradi va Turkistonni ozod qilish rejalarini ishlab chiqadi. Shu boisdan Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston ozodligi yo‘lida shahid bo‘lgan ma’rifatparvar jadid edi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning 1977-yilda “Saylanma” asarlari chop etilgan. Allomaning deyarli barcha asarlari darslik va qo‘llanmalarga kiritilgan. Toshkent va Samarqand shahridagi maktab, ko‘cha va mahallalarga uning nomi qo‘yilgan. Uning sharafiga 2006-yili Samarqand shahrida yodgorlik o‘rnatilgan. Hattoki, Tojikiston Respublikasining Xo‘jand shahridagi gimnaziya Behbudiy nomi bilan atalgan. 2020-yilda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni arafasida Behbudiy hayotiga bag‘ishlangan filmning ilk premyerasi namoyish etildi.

2020-yilda yurtimizda xalqimiz tarixining murakkab damlarida, ma’rifat mash’alasini baland ko‘tarib chiqqan ulug‘ alloma va jamoat arbobi sifatida Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 145 yilligi yurtimizda keng nishonlandi. 2020-yil 30-sentabrda esa Prezidentimiz Farmoniga ko‘ra, jadidchilik harakatining bir qator namoyandalari qatorida Mahmudxo‘ja Behbudiy ham “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlandi [Mirziyoyev, 2020].

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1893-yilda oila qurgan, uning to‘rt farzandi bo‘lgan. To‘ng‘ich o‘g‘li Mas’udxon 1933-yilda qatag‘on davrida Tojikistonga ko‘chib o‘tishga majbur bo‘lgan, ikkinchi farzandi Maqsudxon 1911-yilda tug‘ilgan va 1932-yilda 21 yoshida vafot etgan, qizi Parvinoxon (Surayyoxon ham deyishgan) 1902-yilda tug‘ilgan va 1987-yilda 85 yoshida vafot etgan, to‘rtinchi farzandi Matlubxon esa 1914-yilda tug‘ilgan va 1942-yilda Ikkinchi jahon urushiga safarbar qilinib, urushda bedarak yo‘qolgan.

Bugungi kunda Samarqand shahridagi Mahmudxo‘ja Behbudiy yashagan Qo’shtamg‘ali mahallasi Mir Said Baraka ko‘chasi, 47-uy, allomaning uy-muzeyi faoliyat yuritmoqda. Ushbu uy-muzey 2021-yilda tashkil etilgan bo‘lib, aynan shu uyda vohadagi ilk pyesa dunyo yuzini ko‘rgan, shu xonadonda spektakl shaklida ijro etilgan. Shu uyda, shaharda ilk bor barcha uchun eshiklari ochiq kutubxona tashkil etilgan va shu xonadonda hududning ilk gazetasi chop etilgan. U gazetada o‘tkir, dolzarb maqolalar bitilgan, shu yerda usuli jadid maktablarining tamal toshi qo‘yilgan,



yangi maktablar uchun darsliklar yaratilgan...

Ushbu uy-muzeida Mahmudxo‘ja Behbudiylar nevarasi Nazirxon Behbudiylar hamda evaralari Shohrux va Zarrux Behbudiylar faoliyat yuritib kelishmoqda. “Zarafshon” gazetasida Behbudiylarning evarasi Shohrux Behbudiylarning quyidagi maqolasi ham e‘lon qilingan: “Ta’kidlash lozimki, ma’rifatparvar bobomiz o‘limidan keyin “Samarqand” gazetasi, “Oyina” jurnali tahririyati, “Behbudiylar” nashriyoti xodimlari faoliyat ko‘rsatgan ushbu uyni bolsheviklar tortib olgan. Bugungi kunda qadar bu yerda Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi huzuridagi “Davlat mulkini ijaraga berish markazi” davlat unitar korxonasi faoliyat yuritib kelmoqda edi. Viloyat hokimining topshirig‘iga binoan, ushbu korxonani boshqa joyga ko‘chirilib, tarixiy muzey tashkil qilindi. El-yurt ma’rifati yo‘lida jonini fido etgan bobomizga ko‘rsatilayotgan izzat-ikrom uchun, avvalo, hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevga, Milliy bog‘ buniyodkorlariga, haykaltaroshlarga, Samarqand viloyati hokimligiga va barcha ziyolilarga oilamiz nomidan minnatdorchilik bildiraman” [Behbudiylar, 2020]. Samarqand shahridagi viloyat pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida Mahmudxo‘ja Behbudiylar atab haykal-byust o‘rnatilgan. 2025-yil 3-yanvarda esa Toshkent shahridagi Adiblar xiyoboniga Mahmudxo‘ja Behbudiylarning yana bir haykali qad rostladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2024-yil 27-dekabrda PQ-462-son “Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo‘ja Behbudiylar tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qaror [PQ-462-son, 2024] qabul qilindi. Shuningdek, 2025-yil oktabr oyida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida “Mahmudxo‘ja Behbudiylar merosi va jadidlik harakatini o‘rganishning dolzarb masalalari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tashkil qilinishi hamda noyabr oyida Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik katta teatrida tantanali adabiy-ma’rifiy xotira kechasi o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

## XULOSA

Komil ishonch bilan aytish mumkinki, Mahmudxo‘ja Behbudiylar nomi zamolar osha abadiylar, tillarda doston bo‘lib qolaveradi. Zero, Sadridin Ayniy ta’kidlaganidek, “jafokash shoir Behbudiylarning nomini musulmon Sharqi hurmat bilan tilga oladi, chunki u 20 yil mobaynida o‘zining ongi va insoniy qadr-u qimmatini bilan barchani erkin hayot, nur va ma’rifat uchun kurashga chorlab keldi”. Darhaqiqat, uning o‘g‘itlari hamon dolzarb, zamon andozalariga mos. Behbudiylar qoldirgan boy va rang-barang adabiy, madaniy va ma’rifiy meros ona Vatan istiqboliga xizmat qilib kelmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev, Sh. (2020-yil 30-sentabr). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’rifatparvar jadidchilik harakati namoyandalarini mukofotlash to‘g‘risida”gi Farmoni. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti* da. <https://president.uz/uz/lists/view/3860>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-462-sonli qarori. (2024-yil 27-dekabr). Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog

- Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida. *Lex.uz*'da. <https://lex.uz/uz/docs/-7287373>.
3. Behbudiy, M. (1913). Ikki emas, to'rt til lozim. *"Oyina" jurnali*, 1, 12–14.
  4. Behbudiy, M. (1915). Sart so'zi majhuldur. *"Oyina" jurnali*, 22, 23, 25, 26, 314–315, 338–340, 386–388, 478–80.
  5. Behbudiy, M. (1917a-yil 1-may). Buxoro voqealari va daf'i tuhmat. *"Hurriyat" gazetasi*.
  6. Behbudiy, M. (1917b-yil 19-dekabr). Turkiston muxtoriyati. *"Hurriyat" gazetasi*.
  7. Behbudiy, M. (1917d-yil 22-dekabr). Turkiston muxtoriyati. *"Hurriyat" gazetasi*.
  8. Behbudiy, Sh. (2020-yil 22-may). Behbudiyning ruhi shod bo'ldi. *Zarnews*'da. <https://zarnews.uz/uz/post/behbudiyning-ruhi-shod-boldi>.
  9. Davron, X. (2013-yil 16-yanvar). Turkistonda ilk dramatik asar chop qilinganiga 100 yil to'ldi. *Xurshid Davron kutubxonasi*'da. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/tarixiy-sana/turkistonda-ilk-dramatik-asar.html>.
  10. Haydarov, A. (To'pl.). (2020). *"Zarafshon" ning Behbudiyi*. Toshkent: "Sahhof" nashriyoti.
  11. Hayitov, Sh., & Rahmonov, K. (2020-yil 12-mart). Behbudiyga suiqasd qanday sodir bo'lgandi?. *"Xalq so'zi" veb-nashri*'da. <https://xs.uz/uzkr/post/behbudijga-suiqasd-qandaj-sodir-bolgandi>.
  12. Institute for Development of Freedom of Information. (2022, May 3). *The overview of the censorship of the Georgian press and print media*. IDFI. [https://idfi.ge/en/georgian\\_press\\_and\\_print\\_media\\_history](https://idfi.ge/en/georgian_press_and_print_media_history).
  13. Mahmudov, N. (2019-yil 13-aprel). Turonzaminning ikki dahosi yoxud Sadriddin Ayniy va Mahmudxo'ja Behbudiy munosabatlari. *"Zarafshon" gazetasi*, 46.
  14. Mahmudxo'ja Behbudiy (1875–1919). (2013-yil 4-iyul). *Ziyouz portali*'da. <https://ziyouz.uz/ozbek-ziyolilari/mahmudxoja-behbudiy>.
  15. Muin, H. (1922-yil 7-yanvar). Mufti Mahmudxo'ja hazratlarining qanday shahid bo'lg'onlig'i va uning tomonidan yozilgan vasiyatnoma. *Xurshid Davron kutubxonasi*'da. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/memuarlari/1920-yilning-aprelida-butun-turkiston-motam-tutgan-edi.html>.
  16. Muin, H. (1923-yil 25-mart). Mahmudxo'ja Behbudiy. *"Zarafshon" gazetasi*.
  17. Qosimov, B. (2016-yil 3-iyul). Mahmudxo'ja Behbudiy (1875–1919). *Ziyouz portali*'da. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/milliy-uygonish/begali-qosimov-mahmudhuja-behbudiy-1875-1919>.
  18. Ravshanov, P. (2014-yil 4-iyun). Behbudiyning so'nggi manzili. *Ziyouz portali*'da. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/poyon-ravshanov-behbudiyning-so-nggi-manzili>.
  19. Said, Z. (1927). *O'zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar (1870–1927)* (Sh.Turdiyev (To'pl.)). Toshkent-Samarqand: O'zbekiston davlat nashriyoti.
  20. Saidov, H. (2024-yil 7-sentabr). Buyuk Behbudiy fenomeni: Mahmudxo'ja va jadidchilik harakati. *"Ishonch" gazetasi*, 112(5020), 4.
  21. Sayid, H. (2020-yil 7-yanvar). Mahmudxo'ja Behbudiy kim bo'lgan? Biz uni munosib qadrlayapmizmi?. *"Zarafshon" gazetasi*, 2.
  22. Sen Turonning quyoshi eding... Mahmudxo'ja Behbudiyga bag'ishlovlar. (2016-yil 19-yanvar). Sadriddin Ayniy: Behbudiy xotirasiga ikki she'r. *Xurshid Davron kutubxonasi*'da. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/sen-turonning-quyoshi-eding.html>.
  23. Temirov, F. (2016). Behbudiyning so'nggi istagi. *"Tafakkur" jurnali*, 2.
  24. Shigabdinov, R., & Abdullayev, R. (2020-yil 25-fevral). Mahmudxo'ja Behbudiy hayotining noma'lum sahifalari. *Uzanalytics.com*'da. <https://www.uzanalytics.com/tarix/6815>.
  25. Shodmonov, N. (2023-yil 31-iyul). Behbudiyning vasiyati. *Yuz.uz*'da. <https://yuz.uz/news/behbudiyning-vasiyati>.

## REFERENCES

1. Mirziyoyev, Sh. (30 September 2020). Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On Awarding the Representatives of the Enlightened Jadid Movement". In *Official website*

- of the President of Uzbekistan. Retrieved from <https://president.uz/uz/lists/view/3860>.
2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PD-462. (2024, December 27). On the wide celebration of the 150th anniversary of the birth of Mahmudkhoja Behbudi, founder of the Turkistan Jadid movement, prominent writer, public figure, publisher, and educator. In *Lex.uz*. Available at: <https://lex.uz/uz/docs/-7287373>.
  3. Behbudi, M. (1913). Not two, but four languages are necessary. *Journal of 'Oyina'*, 1, 12–14.
  4. Behbudi, M. (1915). The word “sart” is obscure. *Journal of 'Oyina'*, 22, 23, 25, 26, 314–315, 338–340, 386–388, 478–480.
  5. Behbudi, M. (1917a, May 1). The events of Bukhara and the rebuttal of slander. *Newspaper of 'Freedom'*.
  6. Behbudi, M. (1917b, December 19). The autonomy of Turkistan. *Newspaper of 'Freedom'*.
  7. Behbudi, M. (1917c, December 22). The autonomy of Turkistan. *Newspaper of 'Freedom'*.
  8. Behbudi, S. (2020, May 22). Behbudi's soul rejoiced. In *Zarnews*. Available at: <https://zarnews.uz/uz/post/behbudiyning-ruhi-shod-boldi>.
  9. Davron, Kh. (2013, January 16). It has been 100 years since the first dramatic work was published in Turkistan. In *Khurshid Davron's Library*. Available at: <https://kh-davron.uz/yangiliklar/tarixiy-sana/turkistonda-ilk-dramatik-asar.html>.
  10. Haydarov, A. (Ed.). (2020). *Behbudiy of "Zarafshon"*. Tashkent: Sahhof.
  11. Hayitov, Sh., & Rahmonov, K. (2020, March 12). How was the assassination of Behbudi carried out?. In *"Xalq So'zi" Online*. Available at: <https://xs.uz/uzkr/post/behbudijga-suiqasd-qandaj-sodir-bolgandi>.
  12. Institute for Development of Freedom of Information. (2022, May 3). *The overview of the censorship of the Georgian press and print media*. IDFI. Available at: [https://idfi.ge/en/georgian\\_press\\_and\\_print\\_media\\_history](https://idfi.ge/en/georgian_press_and_print_media_history).
  13. Mahmudkhodja Behbudi (1875–1919). (2013, July 4). In *Ziyouz portal*. Available at: <https://ziyouz.uz/uzbek-ziyolilari/mahmudxoja-behbudiy>.
  14. Mahmudov, N. (2019, April 13). Two geniuses of the land of Turan, or the relationship between Sadridin Ayni and Mahmudkhodja Behbudiy. *Newspaper of 'Zarafshon'*, 46.
  15. Muin, H. (1922, January 7). How Mufti Mahmudkhodja became a martyr and the will he wrote. In *Khurshid Davron's Library*. Available at: <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/memuarlar/1920-yilning-aprelida-butun-turkiston-motam-tutgan-edi.html>.
  16. Muin, H. (1923, March 25). Mahmudkhodja Behbudi. *Newspaper of 'Zarafshon'*.
  17. Qosimov, B. (2016, July 3). Mahmudkhodja Behbudi (1875–1919). In *Ziyouz portal*. Available at: <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/milliy-uygonish/begali-qosimov-mahmudhuja-behbudiy-1875-1919>.
  18. Ravshanov, P. (2014, June 4). Behbudi's final resting place. In *Ziyouz portal*. Available at: <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/poyon-ravshanov-behbudiyning-songgi-manzili>.
  19. Said, Z. (1927). *Materials on the history of the Uzbek periodical press (1870–1927)* (Sh. Turdiev (Ed.)). Tashkent–Samarkand: Uzbekistan State Publishing House.
  20. Saidov, H. (2024, September 7). The Great Behbudi Phenomenon: Mahmudkhoja and the Jadid Movement. *Newspaper of 'Trust'*, 112(5020), 4.
  21. Sayid, H. (2020, January 7). Who was Mahmudkhodja Behbudi? Are we appreciating him properly?. *Newspaper of 'Zarafshon'*, 2.
  22. Shigabdinov, R., & Abdullayev, R. (2020, February 25). Unknown pages of Mahmudkhoja Behbudi's life. In *Uzanalytics.com*. Available at: <https://www.uzanalytics.com/tarix/6815>.
  23. Shodmonov, N. (2023, July 31). Behbudi's will. In *Yuz.uz*. Available at: <https://yuz.uz/news/behbudiyning-vasiyati>.
  24. Temirov, F. (2016). Behbudi's final wish. *Journal of 'Thought'*, 2.
  25. You were the sun of Turan... Dedications to Mahmudkhoja Behbudi. (2016, January 19). Sadridin Ayniy: Two poems in memory of Behbudi. In *Khurshid Davron's Library*. Available at: <https://kh-davron.uz/yangiliklar/sen-turonning-quyoshi-eding.html>.